

XIX ASRDA SHAHRISABZ BEKLIGINING MA'MURIY HUDUDI

Manzarov Mashhurbek,

QarDU Tarix fakulteti IV kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro amirligining muhim iqtisodiy va siyosiy hududlaridan biri hisoblanadigan Shahrисабз bekligining XIX asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholi turmush tarzi, xo'jaligi, etnik tarkibi, ma'muriy hududi va siyosiy chegaralari haqida ma'lumot berilagan.

Tayanch so'zlar: Qadimiy Kesh, «Kesh-Kashsh», «Kas», KATE, “Katta podsholik uyi”, Buyuk Ipak yo'li, Chor Rossiyasi zobiti Grigoryev, Toshko'prik, Shahrисабз Afrosiyobi, Registon, Chorsu, Somon bozori, Oqsuv.

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены сведения о социально-экономической жизни, образе жизни, хозяйстве, этническом составе, административной территории и политических границах Шахрисабз бека, который является одним из важных экономических и политических районов Бухарского эмирата.

Ключевые слова: Древний Кеш, «Кеш-Каш», «Кас», КАТЕ, «Большой царский дом», Великий шелковый путь, офицер царской России Григорьев, Тошкуприк, Шахрисабз Афросиоби, Регистан, Чарсу, соломенный рынок, Оксув.

ANNOTATION

This article provides information about the socio-economic life, lifestyle, economy, ethnic composition, administrative territory and political borders of Shahrисабз province, which is one of the important economic and political regions of Bukhara Emirate.

Key words: Ancient Kesh, "Kesh-Kashsh", "Kas", KATE (Kesh archaeological topographical expedition), "Big Royal House", Great Silk Road, officer of Tsar Russia Grigorev, Tashkuprik, Shahrisabz's Afrasiyab, Registan, Charsu, Straw Bazaar, Aksuv.

Kesh vohasining geografik joylashuvi, aholisining turmush tarzi, iqtisodiyijtimoiy hayoti, hamda bu vohaning tuzilishini o‘rganish O‘rta Osiyo tarixining bosqichlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo vohasi geografik jihatdan ikkita yirik tarixiy viloyatga Shahrisabz va Qarshiga bo‘linadi. Shahrisabz (Qadimgi Kesh) Qashqadaryoning yuqori oqimida joylashgan bo‘lib, sharqdan Hisor tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan.[1; 21].

O‘rta asrlarda Kesh vohasi Zarafshon tog‘lari etagi va G‘uzordaryo atrofida joylashgan tumanlarni o‘z ichiga olgan. Arxeologlarning ta’kidlashicha, voha poytaxti ham Kesh nomi bilan atalgan. U Kitob va Shahrisabz o‘rtasida joylashgan. [2; 7]. Manbalarda Shahrisabz shahri «Kesh Kashsh», «Kas» va «Qis-Kis» shakllarida tilga olingan. [3; 108].

Shahrisabz atamasi ham shaharni qadimiy nomi bo‘lib, yashil shahar ma’nosini bildiradi [4; 22]. 1351 yilda zarb etilgan kumush tangalarda “Shaxrisabz” nomi uchraydi. “Shahrisabz” ilk o‘rta asrlarda Kitob shahri o‘rnida joylashgan. KATE (Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiyasi) tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, bu shahar IX asrdan boshlab hozirgi Shahrisabz o‘rniga ko‘chgan [5; 22].

Jumladan, eski shahar tashqarisida yangi inshootlar qurilgan bo‘lib, shahar hukmdori saroyi va bozor ham shu yerda joylashgan [6; 19]. Keyinchalik shaharning mudofaa devori bilan o‘rab olinishi va mustahkamlanishi Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. Shahrisabz bu davrda aniq rejali, baland himoya devori va mustahkam minorasi bo‘lgan shaharga aylangan [7; 10]. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasi, shu jumladan Shahrisabzbekligi Buxoro amirligining muhim siyosiy-muriy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri hisoblangan.

Aholi soni jihatidan Qarshi va Shahrисabz bekliklari amirlikda oldingi o‘rinlarni egallagan. [8; 152] Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, qo‘rg‘onda bek, uning oilasi va hokimiyat boshqaruvchi vakillari istiqomat qilgan. Saroy ayonlari ham bek qo‘rg‘oniga, yaqin guzarlarda yashagan. Masalan, Sangi oxur guzarida “Katta podsholik uyi” joylashgan bo‘lib, unda beklikning yuqori tabaqa aholisi istiqomat qilgan va hurmatli mehmonlar kutib olingan. [9; 32]

Shahrисabz bekligining markazi Shahrисabz shahri bo‘lib, u o‘zining tuzilishi, qurilishi, tarixiyligi va salobatligi bilan amirlikda muhim ahamiyat kasb etgan. Manba va adabiyotlarda qayd etilishicha, Shahrисabz shahri tuzilishi jihatidan O‘rta Osiyo shaharlaridan farqlanmagan, ya’ni qo‘rg‘on, qal’a va rabotdan iborat bo‘lgan. [10; 17] Shahrисabz shahrining geografik jihatdan qulayligi uning Buyuk Ipak yo‘lida, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarini O‘zbekistonning eng qadimiy va yirik shahri Samarqand bilan bog‘lovchi yo‘l ustida joylashganligidadir. U Zarafshon va Hisor tog‘larining etaklaridagi yerlari unumdar juda go‘zal Kitob va Shahrисabz cho‘kmasida Qashqadaryo bilan Tanxoz daryolarining qo‘shiladigan yeridan uncha olis bo‘lmagan bog‘lar, ekinzorlar bag‘ridadir.

Shahar atrofidagi yerlar dehqonchilik va bog‘dorchilik uchun juda qulay bo‘lgan. [11; 28] Chor Rossiyasi zobiti Grigoryev tomonidan yozib qoldirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Samarqanddan janubroqda undan bir kunlik masofada mahalliy xalq goh Urgut, goh Qoratepa deb ataydigan tog‘ tizmalari ortida, katta karvon savdo yo‘llaridan bir oz chetraqda uncha katta bo‘lmagan Shahrисabz bekligi joylashgan. Beklik bir-biridan 4-5 tosh masofa uzoqlikda joylashgan bir necha qishloqlardan tashkil topgan. Voha uch tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan va Hisor, Samarqand viloyatlari hamda Buxoroning Chiroqchi, Qarshi, Yakkabog‘ yerlari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Shahrисabz bekligiga vohaning janubiy va qisman g‘arbiy qismida joylashgan qishloqlar qaragan. Sharqiy tomonda ikkita daryo - ya’ni tog‘ yonbag‘irlari Toshko‘prik (ba’zilar uni Uloch ham deb ataydilar) va Tanxoz mavjud. O‘zbeklar Oqsuv deb ataydigan hamda Hazrati Sultondan boshlanadigan Oqdaryo bo‘yida

Qorasuv, Mirishkor, Mo‘minobod, Beshkapa, Bumi, Chori, Shakartepa, Soybo‘yi, Bo‘zari, Shavkan, Polmon yana Uloch kabi qishloqlar bo‘lib, ulardan eng yiriklari 22 xonadonli Mo‘minobod va 100 xonadonli Qorasuv, Mirishkor, Uloch qishloqlari bo‘lgan.

Shaharga yaqin qishloqlarga shimol tomoniga joylashgan Kerayit, Sinabog‘, Xo‘jamurodbaxshi, Taraxli, Goyjallob va boshqa tomondan Zangi, Sariosiyo, Govushmon, To‘xliboy, Kapkan, Xo‘jaxuroson, O‘rtaqo‘rg‘on, Shamaton, Choshtepa, Qo‘ng‘iroq, Tezguzar kabi 30 ga yaqin qishloqlar kirgan. Kitob va Shahrisabz o‘zlariga yaqin qishloqlar bilan birga yagona “Chim” devor bilan o‘rab olingan. [12; 95] Shahrisabz shahri uch qism - o‘rta qo‘rg‘on, qal’a va rabotdan iborat bo‘lgan. Bek qo‘rg‘oni shaharning shimoli-sharqiy burchagida joylashgan hamda u xalq orasida Shahrisabz Afrosiyobi nomi bilan atalgan.

Qo‘rg‘onning ikkita darvozasi bo‘lib, sharqiy darvoza To‘pxona, janubiy darvoza Ko‘k darvoza deb nomlangan. [13; 7] Qo‘rg‘on oldida shaharning asosiy maydon - Registon joylashgan. Shahar markazida joylashgan aylanma gumbazli. Chorsudan shaharning to‘rt tomoniga ko‘chalar ketgan va bu ko‘chalar orqali shahar darvozalariga borilgan. Shaharni tashqi muhitdan ajratib turuvchi qal’a devorlarining 6 ta darvozasi bo‘lgan. Shimoliy darvoza Kitob, sharqiy darvoza - Kunchiqar, g‘arbiy darvoza - Qushxona, janubiy darvoza (Yakkabog‘) Charmgar deb atalib, uning yonida Katta Charmgar va Kichik Charmgar guzarlari joylashgani bois, Charmgar nomlari bilan ham yuritilgan. [14; 130]

Bundan tashqari, janubi-sharqiy burchakda ikkinchi darajali Qalmiq darvoza va Simxona darvozalari ham mavjud bo‘lgan. Shaharda 7 ta karvonsaroy va 2 ta hammom bor edi. Shahar guzarlarga bo‘lingan va har bir guzar o‘z masjidiga ega bo‘lgan. Shuningdek, tadqiq qilinayotgan davrda Xo‘ja Mirhamid va Hazrati Malik Ajdar masjidlari ham shaharni asosiy masjidlari hisoblangan. A. L. Kun keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asrning oxirlarida shaharda 14 ta guzar mavjud bo‘lgan. [15; 224]

XX asr boshiga kelib esa guzarlarning soni 52 taga yetgan. Aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan. O‘zbeklardan tashqari, tojiklar, yahudiylar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qilgan. Shuningdek shaharda yahudiylarga qarashli o‘nga yaqin uy-joylar mavjud bo‘lgan. Yahudiylar g‘ayridin hisoblangani uchun ularning musulmon guzarlariga kirishi man etilgan va bu Shahrisabz begi tomonidan nazorat qilingan. [16; 85] Shuningdek, shaharning shimoli-g‘arbiy tomonida joylashgan So‘piguzarda shahar din peshvolarining uy-joylari bo‘lgan.

Bundan tashqari, Kultepa, Hazrati Shayx, Hazrati Imom guzarlarida yashovchilar: xo‘jalar Hazrati Shayx va Hazrati Imom mozorlariga kelib tushgan xayru ehsonlar hisobidan hayot kechirganlar. Xo‘jaguzar va Eshonguzar esa dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Shaharda har kun savdo bo‘ladigan ushbu bozordan tashqari, bir qancha mayda bozorlar ham mavjud bo‘lgan. Jumladan, shaharning g‘arbiy qismida joylashgan Somon bozorida chorva mollari savdosi olib borilgan. Shaharning g‘arbiy qismidagi Somon bozori hududida ham kattagina karvonsaroy mavjud bo‘lib, unda g‘arbiy hududdan kelgan va asosan, chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi savdogarlar to‘xtab o‘tganlar. Shahrisabz bekligining markazi bo‘lgan Shahrisabz shahri o‘zining ahamiyati va kattaligi jihatdan XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida uchinchi shahar hisoblangan.

Shaharda hunarmandchilik guzarlari, bozorlar, karvonsaroylar tashqari, ko‘plab masjidlar, madrasalar, hammom va boshqa jamoatchilik binolari ham qad ko‘targan. Umuman, Shahrisabz shahri nafaqat hunarmandchilik, balki yirik savdo va madaniy markaz ham edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hasanov A. Qashqadaryo vohasi shaharsozligi va me’morchiligi (XVI-XIX asrlar) – Toshkent: Voris, 2019. – B. 21.
2. Sagdullayev A.S. Gau Sug‘d – Nautaka-Kesh // San’at. – Toshkent, 2001. – №1. – B. 7.

3. Kamaliddinov Sh.S. «Kitab al-ansab» Abu Sa'da Abulkarima ibn Muhammada as-Sa'mani kak istoricheskiy istochnik po istorii kulturi Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1993. – S. 108.
4. Masson M.YE., Pugachenkova G. A. Shaxrisabz pri Temure i Ulugbeke // Trudi SAGU. Novaya seriya. Gumanitarniye nauki. Arxeologiya Sredney Azii. – Tashkent, 1953. Vip. 49. – S. 22.
5. Lunin B.S i dr. Shaxrisabz 1968 g, – №8. – S. 22.
6. Bertger YE. K. Izvlecheniye iz knigi «Puti i strani». – Tashkent: Izd-vo SAGU, 1957. – S. 19.
7. Pugachenkova G. A. Temuridskoye arxitekturnoye naslediye Shaxrisabza // Shaxrisabz shahrining jahon tarixida tuttan o'rni. Xalkaro ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. Toshkent, 2002. – B. 10.
8. Safarov D.T XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Quyi Qashqadaryodaholisi (tarixiyetnografik ma'lumotlar) // Qadimiy Qarshi. O'rta Osiyo shaharsozligi va madaniyati tarixi. – Qarshi: – Nasaf, 1999. –B. 152.
9. Hamidova M. Qashqadaryo hunarmandchiligi tarixi. – Tashkent, 2021, 4-jild, – №7. – B. 32.
10. Grigoryev V.V. Ocherki Shaxrisabzskogo bekstva. IVL, 1958. – S. 57.
11. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Tom. 11. – B. 28.
12. Davlatova S. Buxoro amirligida mang'itlar sulolasiga bilan kenagasar urug'i o'rtaidagi ixtiloflar. – Toshkent, 1995. – B. 95.
13. Dresvyanskaya G., Usmanova Z. Iz istorii Kesha. – Tashkent, 1976. – S. 7.
14. Kun A. Ocherki Shaxrisabzkogo // ZRGO. T. VI. – SPb., 1880 g. – S. 224.
15. Suxareva O. A. K istorii gorodov. – Tashkent: Izdatelstvo AN Uz.SSR, 1958. – S. 130.
16. Bekchurin Y. Shaxrisabzskiye vladeniya po rasskazam Djurabeka Bababeka // Materiali dlya statistiki Turkestanskogo kraja. Yejegodnik. – Spb. 1873. Vip. II. – S. 85.